



## QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM ISTIQBOLLARI

**G'aniyeva Shaxloxon Nabidjanovna**

*5- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy ishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tadbqiq etish orqali energiya samaradorligini oshirish, shuningdek iqtisodiyotni yanada rivojlanishi uchun ishlab chiqarish jarayonidagi energiya sig'imini qisqartirish hamda zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish istiqbollari ko'plab dalillarga asoslanib tahlil etilgan.*

**Kalit So'zlar:** *Kommunikatsiya, Texnologiya, Modernizatsiya, Ekologik, Texnogen, Yashil Energetika*

Dunyo rivojlanib borishi bilan insonlarning yashash tarzi yaxshilanib o'zgarib bormoqda. Ushbu rivojlanish natijasida insoniyat ko'plab zaxira va energiya iste'mol qilmoqda, shuningdek qo'l mehnati bilan harakatlantirilgan mexanizmlarning juda katta qismi hozirda elektr energiyasi orqali bajarilmoqda. Dunyoda 2019 yilda 1990 yilga nisbatan ikki barobar ko'p elektr quvvat talab etilmoqda. Xalqaro energetik mutaxassislarning taxminiga ko'ra 2050 yilga kelib, dunyoda elektr quvvatni sarflanishi yana 17 foizga ko'payadi. Agar insoniyat ommaviy ravishda elektr mobillarga o'tishni boshlasa, elektr quvvatiga bo'lgan talab yanada ortadi. Bundan tashqari hozirda hayotimizga kirib kelayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalar faoliyatimiz jarayonida ko'plab masalalarni hal etmoqda. Lekin ushbu texnologiyalarning ko'payishi bilan ularga sarf bo'ladigan energiya sarfi ham ortib borayotgani va shunga yarasha energiyaga bo'lgan talabning ortishi energiya narxining ortishiga olib kelmoqda. Energiya narxining ortishiga ayniqsa tabiiy resurslarning kamayib borayotgani juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Olimlarning fikricha o'sayotgan iste'mol talabini qondirishda eng barqaror va ekologik usuli bosqichma bosqich muqobil energiya manbalariga o'tishdir. Bunday sharoitda insoniyat quyidagi asosiy masalalarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini izlash
- Mavjud energiya manbalarni foydali ish koeffitsientini oshirish
- Sanoatda energiya tejovchi uskunalarni joriy etish
- Energiya iste'molida energiya tejash imkoniyatlarini tadqiq qilish.

Bunday masalalarni hal qilishda ilm fan oldiga yangi ilmiy izlanishlar qo'yilmoqda. Iqtisodiyotning energiya sarfi hajmini kamaytirish elektr energetika siyosatining asosiy vazifasi bo'lib, mazkur vazifaning bajarilmasligi energetika sohasini mamlakatning - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muqarrar ravishda to'sqinlik qilishga olib keladi. Prognoz natijalari bo'yicha 2030 yilgacha bo'lgan davrda Respublikada elektr energiyasiga bo'lgan talabning yillik o'sishi 6-7 foizga teng bo'ladi. 2030 yilga



kelib respublika iste'moli 120.8 mlrd kv.t.s bo'lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi 21.9 mlrd kvts, iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo'lgan talabi- 85.0 mlrd . kv.t.s bo'lishi kutilmoqda. 2020- 2030 yillarda 62 ta loyiha bo'yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan, shu jumladan umumiy quvvati 1537 mvt bo'lgan 35 ta gidro elektr stansiyalari qurilishi va quvvati 186 mvt ga oshirilgan 27 ta gidro elektr stansiyalari modernizatsiya qilish mo'ljallangan. Natijada, 2030 yilga kelib, GES larning umumiy quvvati 3785 Mvt ni tashkil qilib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi- 13.1 mlrd kv.t soatni tashkil qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ko'pgina qurilmalardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ularga nisbatan boshlang'ich katta mablag' sarflansa, iqtisodiy jihatdan ular o'zlarini oqlaydi. Birlamchi energiya tashuvchilar narxlarining oshib ketishi ya'ni geologorazvedka, qazib olish, yetkazib berish va ikkinchi tomondan, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarning rivojlanishi bilan bu energiya raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, ekologik jihatdan qulay bo'lmagan hududlarda qayta tiklanuvchi ekologik toza energiya manbalarini qo'llash katta istiqbolga ega va bu ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan samaralidir.

Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra 2050-yilga borib qazilma yoqilg'I davri tugab, jahon elektrenergiyasining 50% shamol va quyosh energiyasi hisobidan ishlab chiqariladi. IRENA agentligi mutaxassislari 2050-yilga qadar asosiy energiya iste'molida muqobil energiya ulushi o'rtacha iste'molda 25%ga yuqori iste'mol bo'yicha 86%ga yetishi, elektrmobillarning soni esa 1 milliard donodan oshib ketishi bashorat qilinmoqda.

**"Yashil energetika" ni rivojlantirish istiqbollari**

	Амалдаги ҳолат		Муътадил сценарий		Жадал сценарий	
	2015 й.	2018 й.	2030 й.	2050 й.	2030 й.	2050 й.
Пировард энергия истеъмолида муқобил энергия улуши, %	9,5	10,5	17,0	25,0	28,0	66,0
Энергия сифмкорлиги, %	1,8	1,8	2,4	2,6	3,6	3,2
Электрэнергия ишлаб чиқаришда муқобил энергия улуши, %	23,0	26,0	38,0	55,0	57,0	86,0
Электромобиллар сони, млн. дона	1,2	7,9	269	627	379	1109
Иситиш қурилмалари, млн. дона	20	38	63	119	155	334

"Yashil energetika " sohasidagi barqaror rivojlanish tendensiyalari istiqbolda dunyo mamlakatlari uchun yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish imkonini yaratish mumkin. Sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar 2050-yilga qadar muqobil energiya tarmoqlarida 42 milliondan ortiq ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Bu vaqtga kelib energetika sohasida band bo'lganlar soni 100 million kishiga yetishi mumkin. Energetika sohasida yashil energetikaga o'tish jarayonlarining jadallashuvi 2050-yilgacha dunyo mintaqalarida aholi farovonligining 13.5%ga



yaxshilanishiga olib kelishi bashorat qilinmoqda. Sohadagi islohotlar havoning ifloslanish darajining pasayishiga olib keladi va bu o'z navbatida aholi salomatligining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, energiya balansiga bir vaqtning o'zida ekologik toza bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng jalb qilish orqali atrof- muhitga texnogen ta'sirlarni kamaytirish mumkin. Shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yana bir afzalligi uglevodorod resurslarini elektroenergiya ishlab chiqarishda yoqish emas, balki ularni neft- kimyo sanoatida xom ashyo sifatida ishlatish uchun saqlab qolish imkonini beradi.

Markaziy energiya ta'minotidan uzoq, energiya yetib borishi qiyin bo'lgan aholi yashash joylarida qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy jihatdan asoslangan, qulay va ishonchli energiya manbai bo'lishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Андрийевский А.А, Володин В.И. Энергосбережение и энергетический менеджмент. Минск "Вишешага школа" 2005.

2) Бушайев В.В. Научные основы и мониторинг энергоеффективности. Энергосбережение 2003 N ;4

3) D. Yormatova Sanoat ekologiyasi T - 2008.

4) T. Jumayev Ekologiya iqtisodiyoti, darslik T - 2004.

5) Yashil iqtisodiyot: Darslik A.V. Vahabov Sh.X.Hojibakiyev va boshqalar. Toshkent: Universitet 2020.

IRENA (2020), Global Renewables Outlook: Energy transformation 2050 (Edition: 2020), International

Renewable Energy Agency, Abu Dhabi